

UO‘K(UDC, УДК): 82.09.

TURIZM SOHASIGA OID TERMINLARNING LEKSIK-SEMANTIK KATEGORIYASI²³

Abduxalilova Gulbaxor Karabayevna
 filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
 O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
 Ingliz tilini ikkinchi chet tili sifatida o‘qitish
 kafedrasida katta o‘qituvchisi,
 Toshkent, O‘zbekiston
 E-mail: abdukhalilovagulbahor@gmail.com
 ORCID ID: 0000-0002-1679-8956

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola turizm atamalarining leksik va semantik kategoriyalarini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda muallif umumiste‘mol so‘zlarning polisemantik va cheksiz qo‘llanilishini, ixtisoslashgan leksik birliklar sifatida atamalar esa ma‘lum bir tushunchani ifodalash qobiliyati, ma‘lum bir sohaga aloqadorligi va qo‘llanilishi cheklanganligini tahlil qilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi turizm sohaga xos lug‘atda tushunchalar nomi sifatida xizmat qiladigan atamalar umumiste‘mol so‘zlaridan tashkil topgan va turizm atamalari umumiste‘mol so‘zlariga yangi terminologik ma‘nolar berishi orqali paydo bo‘lganligini aniqlashdan iborat. Shuningdek, muallif sohaga oid atamalarni so‘z yasovchi qo‘shimchalar va terminologik elementlar yordamida hosil qilinishini o‘rgangan. Tadqiqotda terminlarning shakllanish jarayoni tilning ichki imkoniyatlari bilan bir qatorda tashqi omillar – ijtimoiy, madaniy va texnologik taraqqiyot bilan ham bevosita bog‘liqligi, yangi terminlarning paydo bo‘lishi hamda terminlarning universallashtiruviga olib keluvchi sabablar muhokama qilingan. Tadqiqotchi o‘zbekcha turistik matnlarda umumiste‘mol so‘zlardan yasalgan milliy xarakter kasb etuvchi terminlarni tahlil qilgan. Maqolada keltirilgan tadqiqot natijalari turizm leksikasini o‘rganishda, matnlarni tahlil qilish va tarjima ishlarida foydali manba bo‘lib xizmat qiladi.

KALIT SO‘ZLAR

Leksik-semantik kategoriyalar, umumiste‘mol so‘zlar, leksikografik talqin, semantik xususiyatlar, atamalar, maxsus leksika, terminologiya, semantik usul.

Received: March 31, 2026

Accepted: April 12, 2026

Available online: May 10, 2026

²³ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Abduxalilova G. Turizm sohasiga oid terminlarning leksik-semantik kategoriyasi. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 3(11) — B. 265-275.

LEXICAL-SEMANTIC CATEGORY OF TERMS RELATED TO TOURISM

Abdukhaliyeva Gulbakhor Karabayevna

doctor of philosophy in philology (PhD),

Uzbekistan State World Languages University

Senior teacher of the

Department of Teaching English

as a Second Foreign Language

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: abdukhaliyevagulbahor@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-1679-8956

ABSTRACT	KEYWORDS
<p>This article is devoted to the study of lexis-semantic categories of tourism terms. The author analyzed that the word in general use is distinguished by its multi-meaning and unlimited use, while terms, as special lexical units, are characterized by their ability to represent a specific concept, related to a specific field, and are limited in use. The main goal of the study is to determine whether terms used to name concepts in tourism-specific vocabulary are composed of common nouns, and whether tourism terms arise by imparting new terminological meanings to common nouns. The author also studied the formation of industry-specific terms using word-forming suffixes and terminological elements. The study discusses the direct relationship between the process of term formation and the internal capabilities of the language, as well as external factors – social, cultural and technological development, the emergence of new terms, and the reasons leading to the universalization of terms. The researcher analyzed terms that acquire a national character, made from commonly used words, in Uzbek tourist texts. The results of the study presented in the article serve as a useful resource in the study of tourism lexicon, text analysis and translation work.</p>	<p>Lexis-semantic categories, general usage words, lexicographic interpretation, semantic features, terms, special vocabulary, terminology, semantic method.</p>

ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ КАТЕГОРИИ ТЕРМИНОВ ТУРИСТИЧЕСКОЙ СФЕРЫ

Абдухалилова Гульбахор Карабаевна

Доктор философии (PhD) по филологическим наукам,

старший преподаватель

кафедры преподавания английского

языка как второго иностранного

Узбекский государственный университет мировых языков,

Ташкент, Узбекистан

E-mail: abdukhalilovagulbahor@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-1679-8956

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена изучению лексико-семантических категорий туристической терминологии. В ней анализируются многозначность и широкие возможности применения общеупотребительной лексики, а также способность специализированных лексических единиц, выступающих в качестве терминов, выражать определенное понятие, их связь с конкретной сферой деятельности и возникающие в этой связи ограничения в использовании. Основная цель исследования – доказать, что термины, обозначающие понятия из сферы туризма, создаются на основе общеупотребительной лексики и образуются на основе развития у данной группы слов новых терминологических значений. Автором также было изучено формирование отраслевых терминов с использованием словообразовательных аффиксов и терминологических элементов. В исследовании показано, что процесс создания терминов обусловлен не только внутренними возможностями языка, но и непосредственно связан с внешними факторами – социальным, культурным и технологическим развитием. Также в работе обсуждаются условия появления новых терминов и причины их универсализации. Автором статьи были выделены и проанализированы термины национального характера, образованные на основе общеупотребительной лексики, в узбекских туристических текстах. Представленные в статье результаты исследования могут служить полезным источником при изучении туристической лексики, а также при анализе текстов и в переводческой практике.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Лексико-семантические категории, общеупотребительная лексика, лексикографическая интерпретация, семантические особенности, термины, специальная лексика, терминология, семантический метод.

KIRISH

Bugungi kunda tilshunoslik sohasining dolzarb masalalaridan biri hisoblangan leksik birliklarning mazmuniy tuzilishi va leksik-semantik munosabatlarning terminlarda o'rganilishi ularning umumiste'mol so'zlaridan farqli tomonlarini kashf etish, shuningdek, leksikografik talqinda chalkashliklarning oldini olish hamda izohning mukammalligini ta'minlash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish hamon muhim vazifa ekanligi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Hozirgi globallashtirish jarayonida turizm sohasi jadal rivojlanayotgan yo'nalishlardan biri sifatida nafaqat iqtisodiy, balki lingvistik jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois turizm terminologiyasining shakllanishi, rivojlanishi va semantik xususiyatlarini o'rganish zamonaviy tilshunoslikning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, umumiste'moldagi so'z o'zining ko'p ma'noliligi, qo'llanilishiga ko'ra chegaralanmaganligi kabi xususiyatlari bilan ajralib tursa-da, terminlar maxsus leksik birliklar sifatida ma'lum bir tushunchani anglatishi, ma'lum sohaga taalluqli ekanligi, qo'llanilishiga ko'ra chegaralanganligi, adabiy til me'yorlariga mos kelishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. *“Terminlar maxsus bilim sohalarida tushunchalarni aniq ifodalash va professional muloqotni ta'minlash uchun xizmat qiladi.”* (Roche C., 2015, 219).

Ta'kidlash joizki, turizm terminlari tizimi tarkibida umumiste'mol so'zlardan yasalgan terminlar ko'plab uchraydi. E'tiborlisi shundaki, ularning ma'lum qismi umumiste'molda qanday ma'noda bo'lsa, terminologiyada ham shu ma'noda qo'llanadi, ma'lum qismi esa boshqa ma'no kasb etgan. *“Ko'plab terminlar umumtil birliklarining ixtisoslashuvi natijasida yuzaga keladi va yangi semantik yuklama oladi”* (Condamines & Rebeyrolle., 2001. 5).

Anglashiladiki, sohaviy leksikada mavjud tushunchalarning nomi bo'lgan terminlar umumiste'moldan o'zlashgandir.

V.Vinogradov o'z navbatida, *“Har qanday fan xalq tafakkuri va nutqi erishgan natijalardan boshlanadi, keyingi rivojlanish jarayonida ham xalq tilidan ajralmaydi”*, deb bejiz ta'kidlamagan (Vinogradov V., 1977, 165). Turizm sohasiga oid leksik birliklarning semantik xususiyatlari birinchi navbatda umumiste'moldagi so'zlarni soha terminologik tizimidan joy olishi va sohaga oid tushunchalarni voqealantirishga qaratilganligi bilan belgilanadi.

Shuningdek, terminlarning shakllanish jarayoni tilning ichki imkoniyatlari bilan bir qatorda tashqi omillar – ijtimoiy, madaniy va texnologik taraqqiyot bilan ham bevosita bog'liqdir. *“Ijtimoiy va texnologik o'zgarishlar terminologiya tizimlarining rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi va yangi tushunchalarning nomlanishini ta'minlaydi”* (Temmerman R., 2000, 1).

Mazkur tashqi omillar terminologiyaning boyishida muhim rol o'ynaydi. Avvalo, ijtimoiy omillarni ko'rib chiqadigan bo'lsak, jamiyat taraqqiyoti, yangi kasb va faoliyat turlarining paydo bo'lishi hamda xalqaro aloqalarning kengayishi natijasida yangi terminlar yuzaga keladi. Xususan, turizm sohasining jadal rivojlanishi natijasida "eco-tourism", "medical tourism", "virtual tourism" kabi yangi terminlar paydo bo'lib, ular jamiyat ehtiyojlari bilan bevosita bog'liq holda shakllangan. Shuningdek, global migratsiya jarayonlari, xalqaro hamkorlik va xizmatlar bozorining kengayishi terminlarning universallashtirishiga olib kelmoqda.

Madaniy omillar ham terminlarning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir xalqning urf-odatlari, qadriyatlari, milliy an'analari va turmush tarzi tilga, xususan terminologiyaga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Masalan, o'zbek tilidagi "mehmondo'stlik", "milliy taomlar", "ziyosat turizmi" kabi tushunchalar nafaqat lingvistik, balki madaniy mazmuni ham o'zida aks ettiradi. Turizm sohasida madaniy meros obyektlari, tarixiy yodgorliklar va milliy bayramlar bilan bog'liq terminlar keng qo'llanilib, ular orqali xalqning madaniy o'ziga xosligi ifodalanadi.

Shu bois, terminlar faqatgina nominativ birlik bo'lib qolmay, balki madaniy axborot tashuvchisi sifatida ham xizmat qiladi. Texnologik omillar esa zamonaviy terminologiyaning eng faol rivojlanish manbalaridan biri hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi natijasida turizm sohasida "online booking", "e-ticket", "digital tourism", "virtual tour", "AI-based travel services" kabi terminlar keng qo'llanila boshladi. Ayniqsa, internet va mobil ilovalar orqali sayohatni rejalashtirish imkoniyatlari kengaygani sari yangi tushunchalar va ularni ifodalovchi terminlar ham paydo bo'lmoqda. Bundan tashqari, sun'iy intellekt, big data va raqamli marketing kabi texnologiyalar turizm terminologiyasini yanada boyitib, uning dinamik rivojlanishini ta'minlamoqda.

Shu bilan birga, ijtimoiy, madaniy va texnologik omillar o'zaro uzviy bog'liq holda terminlarning shakllanishiga kompleks ta'sir ko'rsatadi. Masalan, pandemiya davrida yuzaga kelgan "contactless service", "safe travel", "travel bubble" kabi terminlar bir vaqtning o'zida ijtimoiy ehtiyoj, madaniy moslashuv va texnologik imkoniyatlar natijasida shakllangan. Bu esa terminologiyaning jamiyatdagi real jarayonlar bilan chambarchas bog'liqligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Demak, terminlarning shakllanishi nafaqat tilning ichki qonuniyatlariga, balki tashqi muhitdagi o'zgarishlarga ham bog'liq bo'lib, ushbu jarayon terminologiyaning doimiy yangilanib borishini ta'minlaydi va uning zamonaviy ilmiy hamda amaliy ahamiyatini oshiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Til leksik tizimining uzviy komponenti hisoblangan turizm leksikasining semantik tuzilishidagi farqlar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- a) umumiy va xususiy (farqlovchi) belgilar;

b) denotativ, konnotativ hamda funksional ma'nolari xususiyatlari;
 d) semema tarkibida mavjud yaxlit imkoniyatlar;
 e) leksemalarning o'zaro semantik munosabatlarida lisoniy qiymatni belgilash.

Mazkur jihatlar til birliklarining semantik tizimdagi o'rnini aniqlashda muhim mezon sifatida xizmat qiladi va terminologik tizimning ichki tuzilishini yoritishga yordam beradi.

Turizm sohasiga oid leksik birliklarning semantik xususiyatlari birinchi navbatda umumiste'moldagi so'zlarni soha terminologik tizimidan joy olishi va sohaga oid tushunchalarni voqealantirishga qaratilganligi bilan belgilanadi. S.Usmonov umumiste'moldagi so'zdan semantik usul bilan termin yasalishi borasida quyidagi fikrni keltiradi: *"termin so'zining qo'shimcha qo'llanadigan asosiy (bosh) ma'nosigagina tayanmaydi, balki ko'chma (yoki yasama) ma'nolariga ham asoslanadi"*. (Усмонов С., 1968, 69)

Zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda terminologik tizimlarni o'rganishda funksional va pragmatik yondashuvlar ham keng qo'llanilmoqda. Xususan, terminlarning faqat semantik jihatdan emas, balki ularning nutq jarayonidagi qo'llanishi, kommunikativ vazifasi va kontekstual moslashuvi ham muhim tadqiqot obyekti sifatida qaraladi. Shu nuqtai nazardan, turizm terminologiyasi nafaqat nominativ birliklar tizimi, balki kommunikativ faoliyatda faol ishtirok etuvchi dinamik tizim sifatida namoyon bo'ladi.

V.P. Danilenko umumiste'mol leksikasining terminlashuvi jarayonida uning ma'no turlari, mazmuni va muayyan axborotni ifodalay olish jihatlari bilan ajralib turishini ta'kidlaydi (Даниленко В.П., 1977, 23).

N.Mamatov leksik-semantik usulda termin yasalishini muayyan o'xshashliklar asosida ro'y berishini ta'kidlaydi va ularni quyidagi guruhlariga bo'ladi:

- 1) shakliy o'xshashlik;
- 2) funksional o'xshashlik;
- 3) xususiyatdagi o'xshashlik.
- 4) joyda o'xshashlik asosida (predmetlarga xos tushuncha, jarayon va harakatlarni jonsiz predmetlarga o'xshatish asosida) (Маматов Н., 1955, 27).

A.I. Qosimov esa semantik usul bilan yasalgan terminlarni uch turga ajratadi:

- 1) umumiste'moldagi so'zlarning terminlashuvi;
- 2) umumiste'moldagi so'z va so'z birikmalarining ixtisoslashuvi;
- 3) eskirgan so'zlarning semantik o'zgarishi (Қосимов А.И., 1982, 120).

Aytish joizki, semantik usul bilan termin yasalishi hodisaning nomi sifatida qo'llashda namoyon bo'ladi. M.K.Omonova *"Meliorativ terminlarning semantik usul bilan yasalishi"* nomli maqolasida *"...o'z moddiy ishlab chiqarishi va moddiy munosabatini rivojlantirayotgan kishilar shu o'z voqeligi bilan birga tafakkurini va*

o‘z tafakkurining mahsulini ham o‘zgartiradilar. Natijada insonning mehnati, bilimi va faoliyati natijasida paydo bo‘lgan so‘z ham uning tafakkuri ta‘sirida o‘zgarishga uchraydi va polifunksionallik xususiyatiga ega bo‘ladi” deya ta‘kidlaydi hamda quyidagi misollarni keltiradi: ostona, cho‘qqi, og‘iz, qanot, yostiqlik, chalpak, taroq, qo‘ltiq, burun, yelka, tish, qo‘l, quloq kabilar” deb yozadi (ОМОHOBA M.K., 2020,117).

Demak, termin-nomlar, so‘z-nomlar ostida anglashilgan denotatning boshqa bir denotat bilan almashtirish hisobiga yasalgan, shuning uchun ham ular leksik-semantik usul bilan yasalgan terminlar qatoriga kiritiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Turizm sohasini anglatuvchi mavjud terminlardagi ikki xil holatni kuzatish mumkin:

1. Umumiste‘moldagi so‘zlarga yangi (terminologik) ma‘no yuklash orqali paydo bo‘lgan terminlar: [Qarang: 1-jadval]
- 2.

Umumiste‘moldagi so‘z va iboralar	Sohada termin ma‘nosida qo‘llanilishi
bed only – faqat yotoq	ovqatlanishsiz joylashuv
dwel time – yashash davri	sayyohni mamlakatda qolish muddati
frill – bezak	no frill – arson sayohat paketi
overstay – ushlanib yoki turib qolish	visada ko‘rsatilgan muddatdan ortiq qolib ketish
pacing – tizimlashtirish	sayohat faoliyatini jadvalga tushirish
reissue – qayta nashr	uchish vaqti o‘zgartirilgan yangi chiptalarni chiqarish
layover – ushlanib qolish	keyingi sayohat oldidan tanaffus
show – ko‘rinish	no show – joyni buyurtma qilgani tasdiqlangan, o‘zi yetib kelmagan va bandlovni bekor qilmagan mehmon
upgrade – darajani ko‘tarish	mehmonni yaxshiroq xonaga ko‘chirish
board–stol	full board–to‘rt mahal ovqatlanishni o‘z ichiga olgan tarif
complimentary–tekin	complimentaries–bepul taqdim qilinadigan xonalar, oziq-ovqat va chiptalar
carriers–tashuvchilar	carriers-tashuvchi kompaniyalar

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, turizm terminologiyasi tizimi doimiy ravishda yangilanib boradi va yangi tushunchalar paydo bo'lishi bilan birga yangi terminlar ham shakllanadi. Mazkur jarayon semantik kengayish va ixtisoslashuv orqali amalga oshadi. Bunda so'zning dastlabki ma'nosi saqlanib qolishi yoki yangi terminologik ma'no bilan boyishi mumkin.

2. So'z yasovchi affikslar va termin elementlar yordamida yasalgan terminlar: *greeter, receptionist, reception, upgrade, replacement, shipment, enplane, tourism*. Ushbu terminlar -er, -ist, -tion, -ment, -ism qo'shimchalari yordamida yasalgan. Turizm terminologiyasida ingliz tilining yetakchi o'rni kuzatiladi, bu esa global kommunikatsiya va xalqaro aloqalarning kengayishi bilan bog'liqdir.

Shuningdek, o'zbekcha turistik matnlarda umumiste'moldagi so'zlardan yasalgan milliy xarakter kasb etuvchi terminlar ko'p uchrashi kuzatildi. Masalan: *ma'naviyat, sog'lom turmush tarzi, milliy istiqlol, ommaviy madaniyat, yuksak fazilatlar* kabi. Hozirda zamonaviy turizmning yangidan yangi yo'nalishlari ildamlab bormoqda, bularga *gastronomik turizm, infoturizm, geoturizm, ta'lim turizmi, tog' turizmi, sog'lomlashtirish turizmi, ekoturizm* kabilarni kiritish mumkin. Buning oqibatda turizm sohasiga yangi tushunchalarni kirib kelishiga sabab bo'lmoqda.

Maxsus leksika, ya'ni termin, "*maxsus tushunchani ifodalovchi va maxsus sohaning obyektlarini nomlash uchun qo'llaniladigan so'z va so'z birikma*", – deb ta'riflangan. (Языкознание. Большой энциклопедический словарь, 1998, 685) T.L.Kandelaki terminga quyidagi qisqacha ishchi ta'rifni beradi: "*Termin deganda tegishli tushunchalar tizimidagi o'z ma'nosini aniqlash uchun definitsiya qurilishini talab etadigan so'z yoki leksikallashgan so'z birikmasi tushuniladi*" (Канделаки Т.Л., 1977, 167).

I.V.Arnold terminning ta'rifiga umumiy aniqlik kiritib, uni "*maxsus bilim, ishlab chiqarish yoki san'at sohasiga tegishli tushunchani aniq ifodalovchi va ushbu sohada muloqotni amalga oshirish uchun qo'llaniladigan so'z va so'z birikmadir, deb izohlaydi*" (Арнольд И.В., 1991, 85).

L.V.Ivina terminni ilm-fanda, insoniyat faoliyatining maxsus bilim sohalari va tarmoqlarida obyekt va jarayonlarni nomlovchi hamda shu bilan birga borliqni o'rganishga xizmat qiluvchi asosiy birlikdir, deb hisoblaydi. (Ивина Л.В., 200,14) Y.I.Golovanova esa termin professional fikr yuritishning og'zaki shakli, professional muhitda ish yuritish uchun lingvokognitiv vosita va professional muloqotdagi eng asosiy elementdir, deb hisoblaydi (Голованова Е.И., 2008, 76).

Tahlil natijalari "*terminologiya – umumadabiy tilning maxsus leksikasi emas, umumadabiy tilning turi*" deb biluvchi V.P. Danilenko, V.M. Leychik, L.F. Larkova kabi olimlarning fikrini ham tasdiqlaydi (Даниленко В.П., 1971, 768; Лейчик В.М., 1971, 436; Ларькова Л.Ф., 1984,180).

XULOSA

Yuqorida berilgan ta'riflarning barchasida termini maxsus sohaga tegishliligi ta'kidlanadi. Bundan kelib chiqqan holda biz, termin – inson faoliyatining muayyan bilim sohasi tushunchasining ifodasi, degan xulosaga keldik.

Biroq termin bilan so'z bir-biriga zid ma'no anglatmaydi. So'z tizimli lingvistik xususiyatlarni ifodalovchi birlik bo'lib, voqelikdagi obyektga taalluqli bo'lsa, termin so'z bilan o'xshash xususiyatlarga ega bo'lgan maxsus sohada qo'llaniluvchi birlikdir. Bundan, maxsus sohadagi tushunchani anglatuvchi so'z termin ekanligi namoyon bo'ladi. Umumiste'molda ular qanday mavzuda va qanday vaziyatda qo'llanilishi asosiy sabab hisoblanadi. Shunday qilib, so'zning barcha xususiyatlari, turli xil vaziyatda qo'llaniladigan til birligidir. Termin esa mutaxassislar tomonidan maxsus (odatda tor doiradagi) sohada qo'llaniladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, turizm terminologiyasi umumiste'mol leksikasi bilan uzviy aloqada rivojlanib, yangi tushunchalarni ifodalashda muhim lingvistik vosita sifatida xizmat qiladi. Ushbu jarayon tilning dinamik tabiatini aks ettiradi va uning ijtimoiy ehtiyojlarga moslashuvchanligini namoyon etadi. Bundan tashqari, terminlarning semantik va pragmatik xususiyatlarini o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, tarjima, leksikografiya va sohaviy kommunikatsiyada samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Арнольд И.В. Основы научных исследований в лингвистике: Учеб. пособие – М.: Высшая школа, 1991. – 85 с.
2. Даниленко В.П. Русская терминология // Опыт лингвистического писания. – М. 1977. – С. 23-24.
3. Даниленко В.П. Лексико-семантические и грамматические особенности слов-терминов. Исследование по русской терминологии. – М.: Русский язык. 1971. – 768 с.
4. Голованова Е.И. Когнитивное терминоведение: учеб. пособие. Челябин.гос. ун-т. – Челябинск: энциклопедия. 2008. – 76 с.
5. Ивина Л.В. Лингво-когнитивные основы анализа отраслевых терминосистем (на примере англоязычной терминологии венчурного финансирования): учебно-мет. пособие. – М.: Академический проект, 2003. – 14 с.
7. Канделаки Т.Л. Семантика и мотивированность термина. – М., 1977. –167 с.

8. Condamines A., Rebeyrolle J. Searching for and identifying conceptual relationships via a corpus-based approach to a terminological knowledge base // *International Journal of Corpus Linguistics*. – 2001. – Vol. 6, № 1. – P. 5–27.
9. Лейчик В.М. Об относительности существования термина // *Семиотические проблемы языков науки, терминологии и информатики: Материалы симпозиума*. 4.2. – М.: Наука, 1971. – С. 436-443.
10. Ларькова Л.Ф. Межязыковые семантические корреляции слов терминов родственных языков (на материале немецкой терминологии по современной радио и электропроводной связи в сопоставлении с английской): дисс. канд. филолог. наук. – Киев, 1984. – 180 с.
11. Маматов Н. Узбекская хлопководческая терминология. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент.: Наука, 1955. – 27 с.
12. Омонова М.К. Мелиоратив терминларнинг семантик усул билан ясалиши // *Хорижий филология*. 2020. № 1, – Б.117-122.
13. Қосимов А.И. Фармацевтическая терминология в современном узбекском языке. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент. 1982. – 120 с.
14. Roche C. Terminology and Ontology: A Necessary Symbiosis // *International Journal of Terminology*. – 2015. – Vol. 21, № 2. – P. 219–243.
15. Temmerman R. Towards new ways of terminology description: the sociocognitive approach // *Terminology*. – 2000. – Vol. 6, № 1. – P. 1–24.
16. Усмонов С. Ўзбек терминологиясининг баъзи масалалари. – Тошкент.: Ўқитувчи, 1968. – 69 б.
17. Виноградов В.В. Избранные труды. Лексикология и лексикография. – М.: 1977. – 165 с.
18. Языкознание. Большой энциклопедический словарь / Гл. ред. Ярцева В.Н. 2-е изд. – М.: Большая российская энциклопедия, 1998. – 685 с.

REFERENCE

1. Arnold I.V. (1991). *Fundamentals of Scientific Research in Linguistics: Textbook* М.: Higher School, 85 p.
2. Danilenko V.P. (1977). *Russian Terminology // Experience of Linguistic Writing*. М. P. 23-24.
3. Danilenko V.P. (1971). *Lexico-semantic and grammatical features of word-terms. A study on Russian terminology*. М.: Russian Language. 768 p.
4. Golovanova E.I. (2008). *Cognitive Terminology: A Study Guide*. Chelyabinsk State University – Chelyabinsk: Encyclopedia. 76 p.

5. Ivina L.V. (2003). Linguocognitive foundations of analyzing sectoral terminological systems (using English-language terminology in venture financing as an example): textbook. M.: Academic Project, 14 p.
7. Kandelaki T.L. (1977). Semantics and Motivation of a Term. M., 167 p.
8. Condamines A., Rebeyrolle J. (2001). Searching for and identifying conceptual relationships through a corpus-based approach to a terminological knowledge base // International Journal of Corpus Linguistics. Vol. 6, No. 1. - P. 5-27.
9. Leichik V.M. (1971). On the Relativity of Term Existence // Semiotic Problems of Languages of Science, Terminology, and Informatics: Materials of the Symposium. 4.2. M.: Nauka, P. 436-443.
10. Larkova L.F. (1984). Interlingual semantic correlations of terminological words of related languages (based on German terminology of modern radio and electrical wired communication in comparison with English): dissertation of candidate of philological sciences. Kyiv, 180 p.
11. Mamatov N. (1955). Uzbek Cotton Growing Terminology. Abstract of the dissertation for the degree of Candidate of Philological Sciences. Tashkent: Nauka, 27 p.
12. Omonova M.K. (2020). Semantic Formation of Land Reclamation Terms // Foreign Philology. No. 1, P.117-122.
13. Kosimov A.I. (1982). Pharmaceutical Terminology in Modern Uzbek. Abstract of the dissertation for the degree of Candidate of Philological Sciences. Tashkent. 120 p.
14. Roche C. (2015). Terminology and Ontology: A Necessary Symbiosis // International Journal of Terminology. Vol. 21, No. 2. P. 219-243.
15. Temmerman R. (2000). Towards new ways of terminology description: the sociocognitive approach // Terminology. Vol. 6, No. 1. – P. 1–24.
16. Usmanov S. (1968). Some issues of Uzbek terminology. Tashkent: Teacher, 69 p.
17. Vinogradov V.V. (1977). Selected Works. Lexicology and Lexicography. M. 165 p.
18. Linguistics Large Encyclopaedic Dictionary. (1998). / Edited by V.N. Yartseva. 2nd ed. M.: Great Russian Encyclopedia, 685 p.